



ZAMONAVIY TA'LIMDA CHET TILLARNI MULTIMEDIA VOSITALARI ORQALI O'RGATISH VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Yusupova Munavvara Ravshan Qizi

Andijon Shaxar 31-umumiyl talim O'tra maktabi ingiz tili o'qituvchi



Annotatsiya:

В данной статье говорится о роли мультимедийных средств в обучении иностранным языкам, особенно английскому и русскому, а также о существующих проблемах в преподавании языков и их решениях.

Аннотация:

В данной статье говорится о существующих проблемах в системе дошкольного образования, преподавании иностранных языков, особенно английского и русского, и их решениях.

Abstract:

This article talks about the role of multimedia tools in teaching foreign languages, especially English and Russian, and the existing problems in language teaching and their solutions.

Kalit so'zlar: Metodika, xorijiy tillar, bolalar, talaffuz me'yorlari, predmetlar, multimedia, didaktik materiallar, samarali ta'lim.

Ключевые слова: Методика, иностранные языки, дети, стандарты произношения, предметы, мультимедиа, дидактические материалы, эффективное обучение.

Key words: Methodology, foreign languages, children, pronunciation standards, subjects, multimedia, didactic materials, effective education.



Kun sayin turmush tarzimizda, uyda, ish faoliyatimizda multimediali dan samaraliroq foydalanmoqdamiz. Ota-onalar allaqachonlar farzandlariga raqamli texnologiyalari vositalaridan foydalanishga imkon yaratmoqdalar. Bola hayotining dastlabki kunlaridanoq mazkur vositalar orqali multimedia bilan tanishib, undan foydalanishga odatlanmoqda, sababi bolani ovuntiruvchi turli moslamalar, uning o‘yinchoqlarida ham zamonaviy multedianing roli mavjud. Bola ulg‘aygani sari esa multedianing ta’siri oshirilib, keng foydalaniladigan o‘yinli ko‘ngilochar qurilmalardan foydalanmoqda. Raqamli texnologiyalari bolalar ongiga kuchli ta’sir etuvchi ijtimoiy munosabatlar o‘rniga virtual olam imkoniyatlarini taqdim etib, mazkur ekranli texnikaga qaram bo‘lib borayotgan bolalarning rivojiga haqiqiy xavf tug‘dirmoqda. Keyingi yillarda hatto maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallab ishlab chiqarilgan va bozorga olib chiqilayotgan elektron qurilmalar, jumladan: videokassetalar va DVD-disklar, turli qiziqarli o‘yinchoqlar turi va soni ham ortib bormoqda. Hozircha ota-onalarning o‘zlari ham qiziqib sotib olayotgan bo‘lsalarda, biroq ularning bolalar ongiga qanchalik darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bilmaydilar, sababi mazkur muammoga bag‘ishlangan keng miqyosli ilmiy-tadqiqotlar deyarli yetarli emas.

Bugungi kunda multimedia va raqamli texnologiyalar haqida so‘z borganda, ko‘pincha kompyuter va kompyuterlashgan qurilmalarni tasavvur etadilar, aslida, uning tarkibiga ko‘plab elementlar: video, DVD, kompyuter, planshet, mobil telefonlari, o‘yinli pristavkalar va eng birinchi navbatda, zamonaviy televizor kiradi. Ota-onalar kompyuterni televizorga nisbatan eng avvalo — ta’lim vositasi deb biladilar. Shu sababli ham bola biror yutuqqa erishishi uchun qiziqtiruvchi, rag‘bat-lantiruvchi vosita sifatida mazkur qurilmalarni sovg‘a qilishni va’da qiladilar.



Ta’limda multedianing roli haqida gap ketganda, uni eng avvalo, bolalarning intellektual rivojiga ta’sir etuvchi omil deb sanaydilar. Biroq chet ellik ayrim pedagog-olimlar va tibbiyot mutaxassislarining olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra multimedia mabgacha yoshdagi bolalarga ushbu elektron axborot vositalari o‘zining salbiy ta’sirini ham ko‘rsatishi, bu yoshda bolalar tarbiyasiga, ayniqsa, e’tiborli bo‘lish zarurligini ta’kidlamoqdalar.

Ota-onalar kompyuterni televizorga nisbatan eng avvalo — ta'lim vositasi deb biladilar. Shu sababli ham bola biror yutuqqa erishishi uchun qiziqtiruvchi, rag'bat-lantiruvchi vosita sifatida mazkur qurilmalarni sovg'a qilishni va'da qiladilar. Ta'limda kompyuterning roli haqida gap ketganda, uni eng avvalo, bolalarning intellektual rivojiga ta'sir etuvchi omil deb sanaydilar. Biroq chet ellik ayrim pedagog-olimlar va tibbiyot mutaxassislarining olib borgan tadqiqotlariga ko'ra multimedia bolalarga ushbu elektron axborot vositalari o'zining salbiy ta'sirini ham ko'rsatishi, bu yoshda bolalar tarbiyasiga, ayniqsa, e'tiborli bo'lish zarurligini ta'kidlamoqdalar.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi professional ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Yoshlarimiz zamonaviy va har taraflama yetuk malaka ega kadr bo'lib yetishishlari uchun hamma sharoitlar yaratilgan. Bundan tashqari yuksalish asrida bilim olishga anchagina ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, biz yoshlar O'zbekiston kelajagini porloq qurishimiz uchun, avvalo, samarali va sifatli bilimga ega bo'lishimiz zarur. Shu o'rinda chet tilini o'rganish va o'rgatishni kuchaytirishimiz, xorijiy top universitetlar bilan exchange dasturlarini amalga oshirishimiz hamda bu orqali ko'plab metodlarni o'rganib tatbiq etishimiz zarur. Avvalo maktab va maktabgacha ta'lim tizimida nima uchun xorijiy tillarni o'qitish kerak? degan savolga yuzlansak. Buning eng muhim sabablaridan biri shuki, maktabgacha ta'lim jarayonidagi tarbiyalanuvchilarda xorijiy tillarni tez o'zlashtirish darjasini kattalarga qaraganda ancha yuqori bo'lishi hamda tarbiyalanuvchilarda maktabgacha bo'lган davrda ularning dunyoqarashini kengaytirish kabi masalalar ko'zda tutiladi.



Nafaqat maktabgacha ta'limda balki boshlang'ich ta'limda ham xorijiy tillarni o'qitish juda muhim. Ya'ni, xorijiy tillarni o'qitishdagi asosiy fundament maktabgacha ta'lim jarayonida shakllanadi. Shu sababli bu davrlar tarbiyalanuvchilarga chet tillarini o'qitishda samarali metodlar va kelgusida yaxshi natijalar



talab qiladi. Shunday ekan maktabgacha ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda bir nechta muammolar ham mavjud. Keling bu muammolar va uning yechimlari bilan tanishib olamiz. Avvalo oldimizda uchraydigan muammo bu ilk maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni xorijiy tillarga qiziqtirish va ularni diqqatini jamlash. Bolalarning idroklari tezkor bo'lib, ular barcha atrofdagi yuz berayotgan jarayonlarni diqqat bilan kuzatishadi va his qilib turishadi. Hamda, ular bu jarayonlardan tez zerikadi. Yana bir tur bolalarga jarayonlarni ko'rib his qilib tursa ham, bu jarayonlarni qabul qilmaydi. Bu borada tarbiyachilar o'rgatilayotgan mavzuga doir rangli kartochkalar, sifati yuqori bo'lgan mavzuga doir predmetlar aks etgan rasmlni ko'rgazmalar hamda eng muhimi davr talabi bo'lmish AKT vositalari va multimedialardan foydalanishlari lozim. Navbatdagi masala bu tarbiyalanuvchilar psixologiyasiga ham etiborli bo'lish. Har bir bolalaring o'zini psixikasi bo'ladi. Pedagoglar mashg'ulotlar jarayonida bu narsalarni xisobga olgan holda tarbiyalanuvchilar bilan suhbatlashib o'tmog'i ham lozim. Masalan bolalarning ismini, yoshini yoki qiziqishlarini so'rash yaxshi usuldir. Bu bolalar e'tiborga tushganlik hissini uyg'otadi. Umumiy qilib aytganda, aslida chet tilini o'rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma'qul hisoblanadi. Kichik yoshidagi bolalarning miyya faoliyati to'xtovsiz o'sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to'liq shakllanib bo'lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma'lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, ayrim yoshidagi bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin, rasmlar, qo'shiq va she'rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagagi asosiy tushuncha miyasida rasmlni holda tasvirlanadi. Bu esa o'z navbatida bizdan barcha o'rgatiladigan narsalarni shunga ko'ra tasvirlashni talab etadi.

Misol uchun, Ingliz yoki rus tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan multfilmlar va qo'shiqlardan foydalanilsa tarbiyalanuvchilar multfilmdagi harakat so'zlarini ma'nosini bilmasa ham undagi yuz berayotgan voqeliklardan anglab oladi. Musiqa va qo'shiqlarga kelsak biz musiqalardagi chet tili so'zlarini tarbiyalanuvchilarga yoki ular bilan birgalikda harakatlanib raqsga tushgan holatda ifodalasak tarbiyalanuvchilar yangi so'zni harakatlar orqali tushunish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Gapirish masalasiga to'xtalsak bolalar garchi noto'g'ri gapirsa ham



gapisrin. Yuqorida aytganimizdek noto‘g‘ri gapiryapsan deyish xato. Gapirishni shakllantirish uchun kichik-kichik dialoglardan sahna ko‘rinishi sifatida foydalanish samarali natija beradi. Yana bu borada “bu nima? U nima?” metodlarini ishlatish ham kerak. Tarbiyalanuvchilarga predmetlarning rasmi ekran orqali hamda plakatlarda ko‘rsatiladi. Bu metodika tarbiyalanuvchilarni yod olgan so‘zlarini mustahkamlashga yordam beradi. Eng asosiysi maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarga ingliz va rus tillarini o‘rgatishda har-xil o‘yin tarzidagi metodikalardan foydalanish eng zamonaviy usullardan hisoblanadi. Bu uslubda sinfdagi deyarli barcha tarbiyalanuvchilar ishtirok etishga qiziqish bildiradilar.

Hozirda tahsil olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko‘p e’tibor berishadi. Buni yosh bolalarning chiroyli ustozlarni, xushmuomala pedagoglarni yoqtirishidan ham yaqqol sezish mumkin. Shuning uchun ularga uzatilayotgan ma’lumotlar, albatta, ularning qiziqishini inobatga olgan holda yetkazilishi va rangli materiallar, rasmli qo’llanmalar bevosita ta’lim jarayonida qo’llanishi lozim. Bu degani maktabgacha ta’lim tashkilotidagi yoshlarni o‘qitish metodikasi, avvalo, ularning qiziqishlariga bog’liq.

Xulosa. Kundalik hayotda qanday qilib tekshirishimiz mumkin, televizor va multimedia vositalari - bu uyda voyaga etmaganlar va shuning uchun umuman jamiyat uchun eng qulay bo‘lgan aloqa vositasidir. Shuning uchun uni bugungi kunda bolalar hayotiga ta’sir qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida ishlab chiqilgan yangi texnologiyalar bilan birgalikda ko‘rib chiqish kerak. Shuni yodda tutishimiz kerakki, bu bolalarda ham salbiy, ham ijobjiy ta’sir qilishi mumkin, ya’ni bu aloqa vositasi voyaga etmaganlarda afzalliklari va kamchiliklari bor. Shu bilan birga, ko‘p hollarda ushbu vositadan foydalanish bilan bog‘liq kamchiliklarni yoki uning bolalarimizning jismoniy va aqliy rivojlanishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ta’sirini anglamasligimiz mumkin. Yana bir muhum jihatni zamonaviy multimedia vositalari yosh bolalarda chet tillarini o‘rganishda muhum vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o'qitishning-zamonaviy usullari](https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o'qitishning-zamonaviy_usullari)
 2. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullarinemis-tili-misolida>
 3. Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №.
 4. Google.ru saytlari
 5. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
 6. Usmonova, U. (2021). MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARНИ ILK YOSHIDA XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA TA'LIMIY O'YINLARNINNG AHAMIYATI: BAHOLASH. Maktabgacha ta'lim jurnalı,